

«ROBOTOTEXNIKA TANLOVI»ni o'tkazish to'g'risidagi NIZOM

1. UMUMIY QOIDALAR

1.1 Ushbu nizom O'zbekiston Respublikasida o'tkaziladigan barcha turdagi robototexnika musobaqalarini tashkil etish, boshqarish va o'tkazish uchun umumiy qoidalarini belgilaydi.

1.2 Nizom musobaqaning barcha bosqichlari va yo'nalishlarida qat'iy amal qilinadigan asosiy hujjat bo'lib xizmat qiladi. Musobaqaga oid barcha qo'shimcha reglamentlar ushbu nizomga zid bo'lmasligi lozim.

1.3 Nizom quyidagi maqsadlarni ko'zlaydi:
Yoshlar o'rtasida ilmiy-texnik ijodkorlikni rivojlantirish va texnologiyaga qiziqishni oshirish.

Innovatsion texnologiyalarni targ'ib qilish.

O'zbekiston yoshlarini xalqaro maydonda tanitish uchun tayyorlash.

1.4 Ushbu nizomda ko'rsatilmagan barcha masalalar musobaqa reglamentlari orqali tartibga solinadi.

2. MUSOBAQA TASHKILOTCHILARI

2.1 Musobaqani tashkil etish va boshqarish uchun maxsus Tashkiliy Qo'mita tuziladi.

2.2 Tashkiliy Qo'mita quyidagi funksiyalarni bajaradi:

Musobaqa reglamentlarini tasdiqlash.

Hakamlar hay'atini shakllantirish.

Musobaqaning texnik va tashkiliy masalalarini hal qilish.

Shikoyatlar va apellyatsiyalarni ko'rib chiqish.

2.3 Tashkiliy Qo'mita o'z faoliyatida mustaqil bo'lib, barcha qarorlar yakuniy hisoblanadi.

3. MUSOBAQA ISHTIROKCHILARI

3.1 Musobaqada robototexnika va texnologiyalarga qiziquvchi barcha yoshdagi ishtirokchilar qatnashishi mumkin.

3.2 Ishtirokchilar musobaqada qatnashish uchun shaxsini tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etishlari shart.

3.3 Har bir ishtirokchi yoki jamoa ushbu nizom va musobaqa reglamentlariga amal qilish majburiyatini oladi.

4. ROBOTLAR UCHUN UMUMIY TALABLAR

4.1 Robotlar xavfsiz, texnik jihatdan ishonchli va ishlashga yaroqli bo'lishi kerak.

4.2 Har bir robotning texnik parametrlari musobaqa reglamentlarida keltiriladi. Ushbu parametrlarga quyidagilar kiradi:

Maksimal o'lchamlar va vazn.

Quvvat manbalariga qo'yiladigan talablar.

Ruxsat etilgan materiallar va texnologiyalar.

4.3 Texnik nosozlik sababli xavf tug'diradigan robotlar musobaqadan chetlatiladi.

5. MUSOBAQA O'TKAZISH TARTIBI

5.1 Musobaqalar Tashkiliy Qo'mita tomonidan tasdiqlangan reglament asosida o'tkaziladi.

5.2 Ishtirokchilar va tomoshabinlar musobaqa hududida Tashkiliy Qo'mita tomonidan belgilangan qoidalarga rioya qilishlari shart.

5.3 Barcha robotlar musobaqadan oldin texnik ekspertizadan o'tkaziladi. Texnik talablarga javob bermaydigan robotlar musobaqaga qo'yilmaydi.

5.4 Musobaqa maydoniga faqat Tashkiliy Qo'mita ruxsat bergan shaxslar kirishi mumkin.

6. HAKAMLAR HAY'ATI

6.1 Hakamlar hay'ati Tashkiliy Qo'mita tomonidan shakllantiriladi va musobaqa davomida qoidalarining bajarilishini nazorat qiladi.

6.2 Hakamlar hay'ati quyidagi vazifalarni bajaradi:

Qoidalarga rioya etilishini ta'minlash.

Bahsli holatlarda yakuniy qaror qabul qilish.

Ishtirokchilarning texnik talablarga muvofiqligini baholash.

6.3 Hakamlar qarori yakuniy hisoblanadi va qayta ko'rib chiqilmaydi.

7. SHIKOYATLAR VA APELLYATSIYA

7.1 Ishtirokchilar Tashkiliy Qo'mitaga shikoyatlarni yozma shaklda taqdim etishlari mumkin.

7.2 Shikoyatlar musobaqa bosqichi yakunidan 10 daqiqa ichida topshirilishi lozim.

7.3 Apellyatsiyalar Tashkiliy Qo'mita tomonidan ko'rib chiqilib, tegishli qaror qabul qilinadi.

8. TAQIQLANGAN HOLATLAR

8.1 Quyidagi harakatlar qat'iy taqiqlanadi:

Har qanday yonuvchi, portlovchi yoki zarar yetkazuvchi materiallardan foydalanish.

Robotlarni musobaqa davomida qo'lda boshqarish yoki manipulyatsiya qilish.

Tashkiliy Qo'mita ruxsatisiz maydonga kiritilmagan uskunalardan foydalanish.

Har qanday shaklda o'z WI-FI tarmog'ini yaratish.

Spirтли ichimliklar iste'mol qilish yoki musobaqa hududiga olib kirish.

Binolar ichida chekish.

Musobaqa qatnashchilari va tomoshabinlari uchun xavf tug'diruvchi har qanday harakat.

Ma'muriyat ruxsatisiz xizmat hududlariga kirish.

8.2 Ushbu qoidalarini buzgan ishtirokchilar yoki tashrif buyuruvchilar diskvalifikatsiya qilinadi va hududdan chiqariladi.

9. XAVFSIZLIK VA TARTIB

9.1 Musobaqa davomida xavfsizlik qoidalariga qat'iy amal qilish kerak.

9.2 Ishtirokchilar va tomoshabinlar musobaqa hududida Tashkiliy Qo'mita ko'rsatmalariga amal qilishlari shart.

9.3 Tashkiliy Qo'mita xavfsizlik choralariga rioya etilishini nazorat qiladi.

9.4 Barcha ishtirokchilar va tashrif buyuruvchilar:

Tinchlik va tartibni saqlashi.

Ma'muriyatning qonuniy ko'rsatmalariga rioya qilishi.

Inshoot va asbob-uskunalaridan ehtiyotkorlik bilan foydalanishi.

Boshqalarga xavf tug'dirmaslik uchun o'zini mas'uliyatli tutishi.

Yosh bolalarni qarovsiz qoldirmasligi lozim.

10. QO'SHIMCHA QOIDALAR

10.1 Musobaqaning maxsus qoidalar va reglamentlari rasmiy sayt orqali e'lon qilinadi.

10.2 Tashkiliy Qo'mita musobaqa reglamentlariga o'zgartirishlar kiritish huquqiga ega.

10.3 Ushbu nizomda nazarda tutilmagan holatlar yuzaga kelganda, Tashkiliy Qo'mitaning qarori ustuvor hisoblanadi.

11. QO'SHIMCHA SHARTLAR

11.1 Barcha ishtirokchilar musobaqani o'tkazish va xavfsizlikni ta'minlash uchun zarur bo'lgan qo'shimcha hujjatlar va ma'lumotlarni tashkilotchilar va vakolatli xavfsizlik xodimlari talabiga binoan taqdim etishlari shart.

11.2 Barcha ishlar va qurilmalar atrofdagi odamlarga, boshqa robotlarga, qurilmalarga yoki raqobatga hech qanday zarar yetkazmaslik uchun ishlab chiqarilishi kerak.

11.3 Chempionat davomida ishtirokchilar tashkilotchilar tomonidan taqdim etilgan axborot nishoni bilan bo'lishi kerak.

12. NATIJALARNI UMUMLASHTIRISH VA TAQDIRLASH

12.1 Musobaqa g'oliblari musobaqaning har bir toifasi bo'yicha tegishli tartibda aniqlanadi.

12.2 Har bir yo'nalishda uchta sovrinli o'rin belgilanadi. I, II va III o'rinlarni egallagan tanlov g'oliblari diplom va esdalik sovg'alari bilan taqdirlanadi.

12.3 Maxsus nominatsiyalar yoki alohida e'tirof etilgan ishlanmalar uchun homiylar tomonidan esdalik sovg'alari berilishi mumkin.

12.4 Tashkilotchilar tomonidan barcha ishtirokchilar va ularning rahbarlariga qatnashganligi uchun sertifikatlar topshiriladi.

12.5 Tashkiliy Qo'mita musobaqa sovrinlari yoki maxsus mukofotlar ro'yxatini kengaytirish huquqiga ega.

Bu hujjat musobaqani tashkil qilish va o'tkazish uchun universal hujjat sifatida xizmat qiladi va barcha qo'shimcha reglamentlar unga muvofiq ishlab chiqiladi.

ROBO FUTBOL MUSOBAQA REGLAMENTI

Qatnashuvchilar yoshi: 12-16 yosh

Qurilmalar: Ixtiyoriy

1. Musobaqa haqida

1.1 Umumiy ma'lumot

- Robo Futbol musobaqasi ikki kishidan iborat jamoalar o'rtasida o'tkaziladi.
- Har bir jamoada ikki nafar robot ishtirok etadi.
- O'yin maxsus futbol maydonida ikki bo'lim shaklida o'tkaziladi.
- Jamoalarning asosiy vazifasi adolatli va texnik jihatdan yaxshi muvofiqlashtirilgan o'yin ko'rsatish hamda raqib darvozasiga imkon qadar ko'proq gol urish.

2. Jamoalar va ishtirokchilar

2.1 Jamoa tarkibi

- Har bir jamoa 2 nafar ishtirokchi va 2 ta robotdan iborat.
- O'yin davomida ishtirokchilar robotlarni boshqarish moslamalarini bir-birlariga topshirishlari mumkin.
- Jamoalar ishtirok etayotgan paytda murabbiylar o'yinga aralasha olmaydi.

2.2 Ishtirokchilar talablari

- Ishtirokchilar 12-16 yosh oralig'ida bo'lishi kerak.
- Har bir jamoada katta yoshdagi murabbiy bo'lishi talab qilinadi.

3. Robotga qo'yiladigan talablar

3.1 Robot o'lchamlari

- Maksimal kenglik: 20 sm
- Maksimal uzunlik: 20 sm
- Maksimal balandlik: 20 sm
- Maksimal vazn: 1 kg

3.2 Robotning texnik xususiyatlari

- Robotlar mustaqil yig'ilishi kerak (Lego platformasida ishlab chiqarilgan robotlar musobaqaga qo'yilmaydi).
- Robot istalgan simsiz aloqa kanali orqali boshqarilishi mumkin.
- Boshqarish moslamasi har qanday qurilmadan iborat bo'lishi mumkin, lekin o'yin maydonidan tashqarida bo'lishi shart.
- Robotlar dizayni bir jamoaga tegishli ekanligi aniq ko'rinib turishi kerak.
- Robot maydonga va boshqa robotlarga zarar yetkazadigan o'tkir tig'li qismlar bilan jihozlanishi mumkin emas.

3.3 To'p bilan munosabat

- Robot to'pni ushlab olishi, ichiga joylashtirishi yoki to'liq qamrab olishi taqiqlanadi.
- Robot to'pni dribling qilish uchun zarba mexanizmi ishlatishi mumkin.
- Robot tanasining to'pga tegishli qismi 50% dan kam bo'lishi kerak.


4. Maydon va to'p

4.1 Maydon tavsifi

- Barcha o'yinlar stol ustidagi ikkita darvozali futbol maydonida o'tkaziladi.
- Maydon va darvozalar o'lchami tashkilotchilarning texnik imkoniyatlariga qarab o'zgarishi mumkin.

4.2 To'p

- To'p musobaqa tashkilotchilari tomonidan taqdim etiladi va barcha jamoalar uchun bir xil bo'ladi.



5.

Uchrashuv tartibi

5.1 O'yin tuzilishi

- Har bir o'yin 2 daqiqalik 2 bo'limdan iborat.
- Taymlarning aniq davomiyligi va tanaffus ishtirokchi jamoalar soniga qarab belgilanadi.
- Bo'limlar oralig'ida 1 daqiqa tanaffus beriladi.

5.2 O'yin boshlanishi

- O'yin boshlanishidan oldin barcha robotlar tortiladi, o'lchanadi va karantin hududiga joylashtiriladi.
- Robotlar yoqilib, boshqaruv moslamalariga ulanib, tayyor holatga keltirilishi shart.

- Hakamning belgisi bilan o‘yin boshlanadi.

5.3 Gol urish va o‘yin davomida yuzaga keladigan holatlar

- Gol urilgan deb hisoblanishi uchun to‘p to‘liq darvoza chizig‘idan o‘tishi kerak.
- Agar robot shikastlansa yoki ishlamay qolsa, hakam qaroriga ko‘ra o‘yindan chiqarilishi yoki ta‘mirlanish uchun vaqt berilishi mumkin.
- Agar robotlar o‘z jamoa a‘zolari harakati natijasida ag‘darilsa, jamoa o‘z hisobidan robotni o‘yinga qaytarishi mumkin.
- Agar robot raqib bilan aloqa natijasida ag‘darilsa, hakam robotni o‘yin vaqtini to‘xtatmasdan qaytaradi.

5.4 Qayta ishga tushirish

- To‘p tiqilib qolgan yoki 10 soniyadan ortiq harakatlanmagan bo‘lsa, hakam qayta ishga tushirish e‘lon qiladi.
- Barcha robotlar maydon yarmiga joylashtiriladi va to‘p maydon markaziga qo‘yiladi.

5.5 Ikki tomonlama himoya

- Agar himoyachi jamoaning ikkala roboti ham jarima maydonchasi ichida bo‘lsa va hujumga to‘sqinlik qilsa, hakam penalti belgilashi mumkin.

5.6 O‘yinni tugatish va qo‘shimcha vaqt

- Eng ko‘p gol urgan jamoa g‘olib hisoblanadi.
- Agar o‘yin oxirida hisob teng bo‘lsa, 2 daqiqalik qo‘shimcha vaqt beriladi (oltin gol qoidasi amal qiladi).
- Agar gol kiritilmasa, penaltilar tepiladi.

6. Xulq-atvor qoidalari

6.1 Ishtirokchilarning javobgarligi

- O‘yin davomida robotlar faqat jamoa a‘zolari nazorati ostida bo‘lishi kerak.
- Jamolar maydonga chaqirilganda 3 marta guruhlar raqami e‘lon qilinadi, 2 daqiqa mobaynida guruhlar robotlari va ishtirokchilari maydonga kelishmasa avtomatik tarzda o‘yindan chiqariladi.
- O‘yinda murabbiylar, ota-onalar yoki tashqi shaxslar ishtirok etishi qat’iyan taqiqlanadi.
- O‘yin vaqtida robot bilan biror nosozlik yuzaga kelsa hakam robotni maydondan chiqarib bermaguncha ishtirokchilar robotga qo‘l bilan teginishlari mumkin emas. Agar qo‘l bilan teginilsa jarima belgilanadi. Jarimalar soni 3 ta bo‘lganda penalti belgilanadi.

6.2 Hakam qarorlari

- Hakamlarning qarorlari yakuniy hisoblanadi.
- Istalgan jamoa faqat o‘yin tugaganidan keyin darhol hakamga yozma shikoyat berishi mumkin.

**Ushbu nizom musobaqa boshlanishiga kamida 30 kun qolganida o'zgartirilishi mumkin. O'z o'rnida yangilangan nizom barcha ro'yhatdan o'tgan ishtirokchilarga taqdim etiladi*

KELAJAK
MUHANDISLARI

KELAJAK
MUHANDISLARI

KELAJAK
MUHANDISLARI

KELAJAK
MUHANDISLARI

KELAJAK
MUHANDISLARI

KELAJAK
MUHANDISLARI